KNAUF Sharqiy Yevropa va MDH guruhining sifat sohasidagi siyosati

KNAUF
Nemis standarti

Biz qulay muhit yaratish uchun iste'molchilarning ishlab chiqarilayotgan mahsulotning estetik va foydalanishga oid xususiyatlariga bo'lgan talablari muntazam ravishda o'sib boruvchi shart-sharoitlarda ish yuritamiz. Bizning maqsadimiz ichki va xalqaro bozorni raqobatbardosh, xavfsiz va ekologik toza bo'lgan qurilish va pardozlash materiallari, komplekt tizimlar, uskunalar, karton, xomashyo bilan ta'minlash strategiyasini amalga oshirishdan iborat.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot hamda ko'rsatilayotgan xizmatlarning yuqori sifati – faoliyatimizning asosiy tamoyili.

Biz Sifat siyosatini quyidagi tamoyillarga tayangan holda amalga oshiramiz:

1. Biz o'zimiz ishlayotgan davlat qonunchiligiga, xalqaro kelishuvlar, shartnoma majburiyatlariga rioya qilamiz.
2. Biz ilg'or xalqaro tarjiba, innovatsiyalarni qo'llaymiz va texnologiyalarni tinimsiz ravishda takomillashtirib boramiz.
3. Biz iste'molchilarimizdagi qoniqish hissini muntazam oshirib borishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'yganmiz.
4. Biz muloqot uchun ochiqmiz va iste'molchilar, ta'minotchilar, hamkorlar hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan har tomonlama foydali bo'lgan munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirishga intilamiz.
5. Biz iste'molchilarga KNAUF mahsulotlarini to'g'ri qo'llashni o'rgatamiz va professional hamjamiyat shakllantiramiz.
6. Biz belgilangan maqsadlarga samarali erishish maqsadida xodimlarimizdagi faollik, yetakchilik, kasbiy mahoratni oshirib boramiz.
7. Biz o'z korporativ madaniyatimizni INSONIYLIK, HAMKORLIK, ishga bo'lgan SADOQAT va tadbirkorlik RUHI kabi jamoada iliq muhit yaratilishiga imkon tug'diruvchi omillarga asoslangan holda yaratamiz.
8. Biz "KNAUF" belgisining nufuzini oshirishga uchun intilamiz.
9. Biz kompaniyamizning sifat menejmenti tizimi ISO 9001:2015 standarti talablariga mos kelishini ta'minlaymiz, uni jarayon hamda ehtimoliy voqelikdan kelib chiqib, takomillashtirib boramiz.

KNAUF Sharqiy Yevropa va MDH guruhi rahbariyati Sifat sohasidagi siyosatiga rioya qilishni va uni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan resurslarni ajratishni o'z zimmasiga oladi.

KNAUF Sharqiy Yevropa va MDH guruhi boshqaruvchisi Yanis Kraulis

2018-yil 1-oktabr